




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI
QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI STATISTIKA
BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA
MA'LUMOT



2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko‘ra

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- oktabr holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari 24,1 mingtani tashkil etdi, ulardan 20,2 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar.


Shuningdek, ushbu davrga 33,1 mingta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,7 % ni tashkil etdi.



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024- yil yanvar-sentabr holatiga, birlikda**

2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2 733 tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng ko‘p tashkil etilgan korxona va tashkilotlar quyidagicha, Jumladan: Nukus shahrida (694 ta), Beruniy (280 ta), To‘rtko‘l (259 ta) Ellikqal‘a (235 ta) tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko‘rsatkichni Savdo (945 tani) hamda Sanoat (480 tani) tashkil etdi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Nukus sh.	694	Chimboy	97
Beruniy	280	Qonliko‘l	78
To‘rtko‘l	259	Mo‘ynoq	77
Ellikqal‘a	235	Kegeyli	74
Amudaryo	221	Taxiatosh	65
Qo‘ng‘irot	159	Bo‘zotov	63
Xo‘jayli	125	Qarao‘zak	49
Shumanay	108	Taxtako‘pir	46
Nukus	103		

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida
(birlikda)**




2024- yil 1- oktabr holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 24,1 mingtaga yetdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,1 %, sanoatda – 12,9 %, Yashash va ovqatlanish -5,5 %, qurilish -7,0 % boshqa turlar – 25,1 %, hududiy kesimda eng ko'p Nukus shahri 25,0 %, To'rtko'l 10,7 %, Beruniy 8,9 % tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	6020	Kegeyli	791
To'rtko'l	2572	Taxiatosh	723
Beruniy	2130	Qonliko'l	668
Amudaryo	2073	Qarao'zak	662
Ellikqal'a	1786	Mo'ynoq	625
Qo'ng'irot	1398	Shumanay	538
Xo'jayli	1227	Taxtako'pir	439
Chimboy	1084	Bo'zotov	412
Nukus	905		


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



2024- yil 1- oktabr holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik (tijorat) subyektlari soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 20,3 mingtaga yetdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,8 %, tashish va saqlash – 4,3 %, Sanoat – 15,3 %, Sog'liqni saqlash – 2,1 %, boshqa turlari – 12,1 % ni tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	5062	Kegeyli	653
To'rtko'l	2307	Taxiatosh	597
Beruniy	1836	Qonliko'l	554
Amudaryo	1775	Qarao'zak	527
Ellikqal'a	1526	Mo'ynoq	520
Qo'ng'iroq	1158	Shumanay	417
Xo'jayli	1040	Bo'zotov	338
Chimboy	875	Taxtako'pir	330
Nukus	758		


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



2024- yil yanvar-sentabr holatiga

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir. Shunda, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 66 tadan 66 tani, yashash va ovqatlanish bo‘yicha – 260 tadan 170 tani, sanoat sohalarida 1 305 tadan 479 tani tashkil etdi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Nukus sh.	649	Chimboy	91
Beruniy	274	Qonliko‘l	75
To‘rtko‘l	253	Mo‘ynoq	75
Ellikqal‘a	226	Kegeyli	69
Amudaryo	214	Taxiatosh	62
Qo‘ng‘irot	151	Bo‘zotov	59
Xo‘jayli	116	Taxtako‘pir	44
Shumanay	106	Qarao‘zak	43
Nukus	96		

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




2024-yil 1-oktabr holatiga

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,0 %), To'rtko'l (11,4 %), Beruniy (9,1 %) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	5040		Kegeyli	649
To'rtko'l	2300		Taxiatosh	591
Beruniy	1829		Qonliko'l	552
Amudaryo	1773		Qorao'zak	526
Ellikqal'a	1522		Mo'ynoq	519
Qo'ng'iroq	1154		Shumanay	416
Xo'jayli	1035		Bo'zotov	337
Chimboy	871		Taxtako'pir	328
Nukus	758			

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024-yil 1-oktabr holatiga


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Amudaryo	372
To'rtko'l	311
Nukus	287
Beruniy	250
Kegeyli	166
Qo'ng'iroq	162
Ellikqal'a	156
Qonliko'l	154
Chimboy	151
Xo'jayli	139
Mo'ynoq	109
Qorao'zak	108
Bo'zotov	102
Nukus sh.	92
Taxtako'pir	88
Taxiatosh	82
Shomanay	80

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,4 foizini ishlab chiqarish sanoati, 5,2 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,6 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish va 0,8 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	565
Amudaryo	325
To‘rtko‘l	303
Ellikqal‘a	286
Beruniy	268
Qo‘ng‘iroq	196
Xo‘jayli	177
Chimboy	162
Qorao‘zak	130
Mo‘ynoq	125
Taxiatosh	109
Nukus	105
Kegeyli	93
Taxtako‘pir	77
Qonliko‘l	73
Shumanay	56
Bo‘zatov	48

Yillar kesimida soni (birlikda)



2 829

Ishlab chiqarish sanoati



163

tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



85

Suv bilan ta’minalash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish



21

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash



2024- yil 1- oktabr holatiga


O‘zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan.

Qurilish sohasining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishidagi korxonalar soni 54,8 % ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishidagi korxonalar soni 28,0 % ulushni
- fuqarolik obyektlarini qurilish yo‘nalishidagi korxonalar soni esa 17,2 % ulushni tashkil etdi.



Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Yillar kesimida soni

(birlikda)



**Fuqarolik
obyektlarini qurish**

**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari**

472



**Bino va inshootlar
qurish**

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 247 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.


Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 63,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 25,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 10,9 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Nukus sh.	1919
To‘rtko‘l	904
Beruniy	755
Amudaryo	614
Ellikqal‘a	549
Qo‘ng‘iroq	385
Xo‘jayli	378
Chimboy	331
Taxiatosh	230
Kegeyli	200
Qonliko‘l	190
Shumanay	188
Nukus	159
Mo‘ynoq	145
Qorao‘zak	125
Bo‘zatov	90
Taxtako‘pir	89

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



789

Avtomobil
va motosikllarning ulgurji va chakana
savdosi va ularni ta’mirlash

1 863

Avtomobil va motosikllar
savdosidan tashqari ulgurji savdo

4 599

Avtomobil va motosikllar
savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- oktabr holatiga



2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 1 318 taga yetdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,4 % ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,6 % ulushini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida
(birlikda)**

Nukus sh.	358
Amudaryo	163
To‘rtko‘l	140
Ellikqal‘a	116
Qo‘ng‘iroq	104
Beruniy	101
Xo‘jayli	54
Chimboy	51
Kegayli	35
Mo‘ynoq	34
Qorao‘zak	33
Qonliko‘l	33
Taxiatosh	26
Shomanay	23
Nukus	22
Bo‘zatov	13
Taxtako‘pir	12

**Yillar kesimida
(birlikda)**



(2024-yil 1- oktabr holatiga)

2024-yil 1- oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining 63,0 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 33,2 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,8 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Nukus sh.	221	Xo'jayli	17
Beruniy	35	Taxiatosh	10
Chimboy	31	Mo'ynoq	9
Qo'ng'iroq	25	Qoraqozak	8
To'rtko'l	23	Qonliko'l	8
Amudaryo	21	Taxtako'pir	6
Ellikqa'l'a	21	Shomanay	6
Kegeyli	17	Bo'zotov	4
Nukus	17		

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	200
	Noshirlik faoliyati	90
	Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	12

	102	Aloqa
	69	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat
	6	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish

2024- yil 1- oktabr holatiga

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 432 tasi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarning jamiga nisbati 95,8 foizni;



- yashash uchun joy bilan ta‘minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni jamiga nisbati 2,4 foizni;

- yashash uchun joy bilan ta‘minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida
(birlikda)**

Nukus sh.	188
Beruniy	45
Ellikqal‘a	42
Amudaryo	41
Qo‘ng‘iroq	34
To‘rtko‘l	33
Xo‘jayli	32
Taxiatosh	18
Chimboy	18
Kegeyli	15
Nukus	15
Taxtako‘pir	7
Qonliko‘l	5
Mo‘ynoq	5
Qarao‘zak	4
Shumanay	4
Bo‘zotov	1


**Yillar kesimida
(birlikda)**



(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududlar kesimida soni

(birlikda)




2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami respublikadagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 83,9 foizni tashkil etdi.

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida tashish va saqlash xizmatlari faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,5 foizni tashkil etdi.

Pochta va kuryerlik xizmatlari faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 1,4 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot
2024- yil 1- oktabr holatiga

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarни tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Tadbirkorlik
subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

15 851 mas'uliyati cheklangan
jamiyat

78,2%

1 985 xususiy
korxonalar

9,8%

2 073 oilaviy
korxonalar

10,2%

20 aksiyadorlik
jamiyati

0,1 %


344 boshqalar

1,7 %

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlarini qo‘shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	601
Beruniy	240
Amudaryo	190
Ellikqal‘a	167
To‘rtko‘l	161
Qo‘ng‘irot	127
Shumanay	90
Xo‘jayli	84
Chimboy	83

Nukus	81
Kegeyli	67
Bo‘zotov	59
Qonliko‘l	59
Mo‘ynoq	55
Taxiatosh	50
Qarao‘zak	35
Taxtako‘pir	28

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Amaldagi 20,3 mingta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- oktabr holatiga ma’suliyati cheklangan jamiyatlar 15,8 mingtani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha korxonalar orasida birinchi o‘rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko‘p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 34,7 foiz, sanoat – 14,2 foiz, qurilish – 9,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 14,6 foiz.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**

15 851 **2024**

2023 **16 641**

16 347 **2022**

2021 **14 930**

11 828 **2020**

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



2 312

Qishloq, o‘rmon
va baliqchilik xo‘jaligi



2 248

Sanoat



1 545

Qurilish



5 505

Savdo



813

Tashish va
saqlash



780

Yashash
va ovqatlanish bo‘yicha
xizmatlar



384

Axborot va
aloqa



310

Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko‘rsatish



1 954

Boshqa turlar

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Nukus sh.	4339
To‘rtko‘l	1590
Beruniy	1478
Amudaryo	1345
Ellikqal‘a	993
Qo‘ng‘irot	853
Xo‘jayli	834
Chimboy	760
Nukus	653

Kegeyli	574
Qarao‘zak	454
Mo‘ynoq	437
Taxiatosh	401
Qonliko‘l	324
Bo‘zotov	310
Shumanay	293
Taxtako‘pir	213

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

2024- yil 1- oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Nukus shahrida – 399 ta, Ellikqal'a – 310 ta va To'rtko'l – 192 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 888 ta, sanoat – 240 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 196 ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 132 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	399
Ellikqal'a	310
To'rtko'l	192
Beruniy	184
Qo'ng'iroq	170
Amudaryo	108
Taxiatosh	98
Shumanay	95
Qonliko'l	77

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 2 073 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 40,5 foiz, sanoat – 24,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 16,1 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 5,3 foiz faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

To‘rtko‘l	493
Amudaryo	292
Nukus sh.	285
Ellikqal‘a	198
Beruniy	145
Qonliko‘l	119
Xo‘jayli	111
Qo‘ng‘iroq	96
Taxiatosh	81

Nukus	61
Taxtako‘pir	58
Mo‘ynoq	35
Shumanay	27
Qarao‘zak	22
Kegeyli	20
Chimboy	19
Bo‘zotov	11

(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Ellikqal'a (11,6 foiz), Beruniy (11,4 foiz) va To'rtko'l (9,2 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Ellikqal'a	567
Beruniy	557
To'rtko'l	450
Amudaryo	381
Qarao'zak	367
Chimboy	358
Nukus	358
Qonliko'l	336
Kegeyli	325
Shumanay	296
Qo'ng'iroq	273
Xo'jayli	210
Taxtako'pir	207
Taxiatosh	80
Mo'ynoq	79
Bo'zotov	58
Nukus sh.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 685 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohada xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash va akvakultura



218

O'rmonchilik va yog'och tayyorlash




Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024-yil 1- oktabr holatiga)

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan 174 ta korxonalardan 74 tasi qo‘shma korxonalar va 100 tasi chet el korxonalarini hisobiga to‘g‘ri keldi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nukus sh.	46	Beruniy	6
Mo‘ynoq	28	Taxiatosh	6
Qo‘ng‘iroq	15	Xo‘jayli	6
To‘rtko‘l	11	Kegeyli	5
Amudaryo	9	Ellikqal‘a	5
Nukus	9	Taxtako‘pir	4
Bo‘zotov	7	Shumanay	2
Qarao‘zak	7	Chimboy	1
Qonliko‘l	7		

2024- yil 1- oktabr holatiga

Qoraqalpog‘istonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxonalar 174 ta bo‘lib shundan 74 tasi qo‘shma va 100 tasi chet el korxonalari hisobiga to‘g‘ri keldi.



Mamlakatimizda t̄investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

2024- yil 1- oktabr holatiga xorijiy investitsiyalar ishtirokida ro‘yxatga olingan korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 21 taga ko‘payib, 174 tani tashkil etdi.



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat‘iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

(2024- yil 1- oktabr holatiga,)

qo‘shma korxonalar

chet el korxonalari



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.


Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan
yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul
olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Qoraqalpog‘iston
respublikasi statistika
boshqarmasi
Tel.: 61 222-78-37

PRESS-RELIZ

